



CERTAIN ISSUES REGARDING THE PARTICIPATION OF CRIME VICTIMS AND WITNESSES IN THE STAGE OF INITIATION OF CRIMINAL PROCEEDINGS

Khurshid Ashrakhodjaevich Raxmedov

*Senior Prosecutor of the Department at the
General Prosecutor's Office of the Republic of Uzbekistan
Independent Researcher*

E-mail: xurshid.raxmedov@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: criminal procedure, initiation of a criminal case, pre-investigation inquiry, person affected by a crime, victim, applicant, eyewitness, witness, procedural status, participants in proceedings, justice, legal guarantees, crime report, protection of individual rights.

Received: 25.06.26

Accepted: 26.06.26

Published: 27.06.26

Abstract: This article analyzes theoretical, legal and practical issues related to determining the procedural status of a person affected by a crime and an eyewitness at the stage of initiating a criminal case. It substantiates that the concept of a person affected by a crime has a broader legal meaning than the concept of a "victim", while the current criminal procedural legislation does not sufficiently regulate the rights and obligations of such a person during the pre-investigation inquiry. The article also reveals the distinctive features of the procedural statuses of an applicant, a victim and a person affected by a crime, and argues for the need to clearly distinguish them in legislation. In addition, the article examines the role of an eyewitness in the process of verifying crime reports, the procedural characteristics that distinguish an eyewitness from a witness, and the problems arising from the absence of a clearly defined legal status.

JINOYATDAN JABR KO'RGAN SHAXS VA SHOHIDNING JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH JARAYONIDA ISHTIROKI BILAN BOG'LIQ AYRIM MASALALAR

Xurshid Ashrakhodjaevich Raxmedov

*O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
boshqarma katta prokurori, mustaqil izlanuvchi*

E-mail: xurshid.raxmedov@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: jinoyat protsessi, jinoyat ishini qo'zg'atish, tergovga qadar tekshiruv, jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs, jabrlanuvchi, arizachi, shohid, guvoh, protsessual maqom, protsess ishtirokchilari, odil sudlov, huquqiy kafolatlar, jinoyat to'g'risidagi xabar, shaxs huquqlarini himoya qilish.

Annotatsiya: Mazkur maqolada jinoyat ishini qo'zg'atishda jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs va shohidning protsessual maqomini belgilash bilan bog'liq nazariy-huquqiy va amaliy masalalar tahlil qilingan. Unda jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs tushunchasi "jabrlanuvchi" tushunchasiga nisbatan kengroq huquqiy mazmunga ega ekani, amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda esa ushbu shaxsning tergovga qadar tekshiruv jarayonidagi huquq va majburiyatlari yetarli darajada mustahkamlanmagani asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada arizachi, jabrlanuvchi va jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs maqomlarining o'zaro farqli jihatlari ochib berilgan, ularni qonunchilikda aniq ajratish zarurati ilgari surilgan. Jinoyat to'g'risidagi xabarlarni tekshirish jarayonida shohidning o'rni, uning guvohdan farqli protsessual xususiyatlari hamda huquqiy maqomining mavjud emasligi bilan bog'liq muammolar ko'rib chiqilgan.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ УЧАСТИЯ ПОТЕРПЕВШЕГО ОТ ПРЕСТУПЛЕНИЯ И СВИДЕТЕЛЯ В СТАДИИ ВОЗБУЖДЕНИЯ УГОЛОВНОГО ДЕЛА

Хуршид Ашрапходжаевич Рахмедов

Старший прокурор управления

Генеральной прокуратуры Республики Узбекистан,

независимый исследователь

E-mail: xurshid.raxmedov@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: уголовный процесс, возбуждение уголовного дела, доследственная проверка, лицо, пострадавшее от преступления, потерпевший, заявитель, очевидец, свидетель, процессуальный статус, участники процесса, правосудие, правовые гарантии, сообщение о преступлении, защита прав личности.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретико-правовые и практические вопросы, связанные с определением процессуального статуса лица, пострадавшего от преступления, и очевидца на стадии возбуждения уголовного дела. Обосновано, что понятие лица, пострадавшего от преступления, имеет более широкое правовое содержание по сравнению с понятием «потерпевший», тогда как в действующем уголовно-

процессуальном законодательстве права и обязанности данного лица в процессе следственной проверки закреплены недостаточно. Кроме того, в статье раскрыты отличительные особенности правовых статусов заявителя, потерпевшего и лица, пострадавшего от преступления, а также обоснована необходимость их четкого разграничения в законодательстве. Рассмотрены место очевидца в процессе проверки сообщений о преступлении, его процессуальные особенности, отличающие его от свидетеля, а также проблемы, связанные с отсутствием его правового статуса.

Kirish. O‘zbekistonda inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e‘lon qilingan. Bugungi kunda yurtimizda ularni amalga oshirishning samarali ishlaydigan mexanizmini yaratish ham ustuvor ahamiyatga ega. Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish samaradorligini oshirish uchun qonunchilikda ularning kafolatlarini mustahkamlovchi normalar mavjud bo‘lishi darkor.

Bu kafolatlar jinoyat protsessi ishtirokchilari huquqlarini to‘liq amalga oshirishlari uchun juda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida shaxs huquqlarini kafolatlovchi elementlarni ko‘rishimiz mumkin. Chunonchi, Konstitutsiyaning 29-moddasida, huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jabrlanganlarga himoyalaniшни va odil sudlovdan foydalanishni ta’minlaydi [1]. Va, bu mutlaqo adolatlidir, chunki qonun bilan berilgan huquqlarni samarali amalga oshirish o‘z-o‘zidan amalga oshirilmaydi, balki me‘yoriy kafolatlarining mavjudligini talab qiladi. Bundan tashqari, davlat organlari va uning mansabdor shaxslari aynan ular ushbu huquqiy kafolatlarini ta’minlaydilar, bu o‘z navbatida jinoyat ishini yuritishda qonuniylikka erishish uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Dunyoda, jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda xalqaro toifadagi me‘yoriy hujjatlar ham muhim rol o‘ynaydi. Binobarin, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 8-moddasiga binoan, “Har bir inson unga konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga egaligi qayd etilgan”[2]. Shuningdek, Yevropa Kengashi Vazirlar Qo‘mitasining 1985- yil 28-iyundagi “Jinoyat va jinoyat protsessi doirasida jabrlanuvchining ahvoli to‘g‘risida”gi N R (85) 11-sonli tavsiyasiga ko‘ra, jabrlanuvchining qonuniy manfaatlarini himoya qilish, uning sha’ni, qadr-qimmatini hurmat qilish,

jabrlanuvchining jinoiy odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish jinoyat odil sudlovining muhim vazifasi bo'lishi kerak [3].

Ta'kidlash joizki, jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs ta'rifi "Jinoyat va hokimiyatni suiiste'mol qilish qurbonlari uchun odil sudlovning asosiy tamoyillari deklaratsiyasi"da (BMT Bosh Assambleyasining 1985-yil 29-noyabrdagi 40/34-sonli rezolyusiyasi bilan qabul qilingan) keltirilgan bo'lib, unda jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs - bu amaldagi milliy jinoyat qonunlarini buzadigan harakat yoki harakatsizlik natijasida jismoniy shikastlanish yoki ma'naviy zarar, ruhiy azob-uqubatlar, moddiy zarar yoki asosiy huquqlarining sezilarli darajada buzilishi kabi yakka tartibda yoki jamoaviy zarar yetkazilgan shaxslardir [4].

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda har yili turli xil jinoyatlar sodir etilib, tabiiyki jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslar mavjud. Masalan, 2025-yilda O'zbekiston Respublikasida 54786 ta jinoyat qayd etilgan. Umuman olganda, ro'yxatga olinmagan, jinoyatchilikni yashirish yoki latent jinoyatlar tufayli jinoyatlarning rasmiy statiskadan bir necha baravar ko'p. Binobarin, qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha jabrlanuvchi deb topilgan shaxslardanga nisbatan aslida turli jinoyatlardan jabr ko'rgan shaxslar ancha ko'p. Masalan, 2022-yilda rad qilish qarori bekor qilinib, qo'zg'atilgan jinoyatlar 5645 ta, 2023-yilda rad qilish qarori bekor qilinib, qo'zg'atilgan jinoyatlar to'g'risida 5710 ta, 2024-yilda ichki ishlar organi xodimlari tomonidan hisobdan yashirilgan hisobot davrida sodir etilgan jinoyatlar 22 tani tashkil etadi. 2025 yil 6 oyida ichki ishlar organi xodimlari tomonidan hisobdan yashirilgan hisobot yilida sodir etilgan jinoyatlar 2 tani tashkil etadi. Tergovda ayblanib, sud hukmi bilan reabilitatsiya etilgan shaxslar soni 2022-yil 200 ta, 2023-yil 248 ta, 2024-yil 233 ta, 2025-yil 115 tani tashkil qiladi. Statistik ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda turli jinoyatlardan jabrlanganlarning haqiqiy soni kamida 67422 ta kishini tashkil etadi. Latent jinoyatchilik (uch turi mavjud: xabar qilinmagan jinoyatlar, hisobga olinmagan jinoyatlar va aniqlanmagan jinoyatlar) rivojlanishining ayrim sabablari bu fuqarolarning huquqni muhofaza qilish tizimiga ishonchsizligi tufaylidir.

Adabiyotlar tahlili. Sh.Uzakovning ta'kidlashicha, ta'qib organ tomonidan jinoyat haqidagi ariza va habarlarni qayd qilmaslik, jinoyat ishini qo'zg'atmaslik, tugatish kabi masalalar jinoyatdan jabr ko'rgan fuqarolarning odil sudlovga erishish va ularga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini qo'pol ravishda buzishga olib kelmoqda [5]. Bu masalalar nafaqat davlatni, balki jamiyatni ham tashvishga soladi.

D.R.Turaevaning aytishicha, "tarixda jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslar ayblanuvchiga qaraganda hech qanday amaliy protsessual huquqi mavjud bo'lmagan. Ya'ni protsessual jihatdan teng huquqli emas edi. Bugunga kelib, jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslarni himoya qilish davlatning siyosiy mafkurasiga aylandi" [6].

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yildagi 14-maydagi PQ-3723-son Qarorida jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxslar bilan bog‘liq quyidagi masalalar o‘rin olgan: “jinoyatdan jabrlangan shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash va ko‘maklashishning samarali mexanizmlarini o‘rnatish, jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxslarni himoya qilish bo‘yicha ta’sirchan jinoyat-protsessual hamda tashkiliy choralarni joriy etish hamda jinoiy qilmishdan jabr ko‘rgan shaxslarning buzilgan huquqlarini tiklash mexanizmlarining samaradorligini oshirish” [7]. Davlat rahbari tomonidan olib borilayotgan huquqiy himoya choralari bevosita jamiyatda inson huquq va erkinliklarining eng oliy qadriyat sifatidagi konstitutsiyaviy tamoyilini ro‘yobga chiqarishdir. Demak, mamlakatimizda olib borilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlar nafaqat ta’qib ostidagi gumon qilinuvchini yoki ayblanuvchini, balki ularning qilmishlaridan jabr ko‘rgan shaxslarning ham huquqlari va qonuniy manfaatlarini to‘laqonli himoya qilishga bel bog‘lagan. Albatta, jamiyatda u yoki bu shaxslarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish elementlarning paydo bo‘lishi, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish kafolat sifatida qarash mumkin. Biroq, statistik ma’lumotlar tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda jinoyat jabr ko‘rgan shaxslarni himoya qilish mexanizmi to‘laqonli ishlamayaptganligini ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, HMQO jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxslar statistik ma’lumotlari yuritilmaydi. Faqat, 2023-yildan boshlab, voyaga yetmagan jabrlanuvchilar bilan bog‘liq statistik ma’lumotlar yuritila boshlandi. Shu bilan birga, eng katta muammolardan biri bu agar jinoyat sodir etgan shaxs aniqlansa, davlat yetkazilgan zararni qoplash choralarni ko‘riladi. Agar jinoyatchi aniqlanmasa, jabrlanuvchi zarar ko‘rib qolaveradi.

Odatda, “jinoyatdan jabr ko‘rgan” atamasi asosan noqonuniy xatti-harakatlar natijasida zarar ko‘rgan jismoniy shaxslar tushuniladi.

Protsessualist olimlarning ta’kidlashicha, “jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxslar” tushunchasi “jabrlanuvchi”ga qaraganda kengroq tushunchadir [8]. Chunonchi, V.I.Polubinskiy va A.L.Sitkovskiylar, jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxslar - bu qonunda belgilangan tartibda mazkur jinoyatdan jabrlanuvchi deb topilgan yoki topilmaganligidan qat’i nazar, g‘ayriqonuniy qilmishdan ma’naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar ko‘rgan har qanday shaxsdir, degan fikrlarni ilgari suradilar [9]. N.O.Grushko, jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxs bevosita jinoyat sodir etish paytida yoki keyin, jabrlanuvchi esa faqat jinoyat ishi doirasida tergovchi lozim topsa protsess ishtirokchisi maqomiga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, ba’zi hollarda (jinoyat qurbonining o‘limi) jabrlanuvchi maqomini jinoyatdan jabrlangan shaxsning yaqin qarindoshlari olishi mumkin, garchi ular aslida ushbu jinoiy huquqbuzarlikning qurboni bo‘lmasalar ham [10]. V.P.Konovalov, jinoyatdan jabr ko‘rgan nafaqat jismoniy shaxs, balki yuridik shaxslar ham topiladi [11]. Jabr

ko'rgan - jinoyat natijasida jismoniy, ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazilgan jismoniy shaxs. Jinoyatning har qanday jabr ko'rgan yoki jabrlanuvchisi, ham potensial, ham real tomon, uni zaif qiladigan xususiyatlarga ega [12]. Jabrlangan tushunchasi AQSh qonunlari to'plami 10607-to'plamda topish mumkin. Chunonchi, 10607-to'plamda "Jabr ko'rgan - o'ziga nisbatan jinoyat sodir etilgan, qaror chiqarilishi lozim bo'lgan va manfaatlarini ifodalash huquqiga ega bo'lgan shaxsdir" [13]. AQShda jabr ko'rgan shaxs maqomi masalasi har bir shtatda o'ziga xos xususiyatga ega. Odatda, jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs har qanday shaxs topilishi mumkin. Ammo, Djordjiya, Viskonsin va Illinoys shtatlarida, jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs faqat jinoyat sodir etilishi yoki unga suiqasd qilinishi natijasida o'ldirilgan yoki tan jarohati yetkazilgan shaxs topilishi mumkin [14]. Jon Federiko, jinoyat qurbonini quyidagicha ta'riflaydi: "Boshqa shaxs tomonidan sodir etilgan jinoiy harakat natijasida vafot etgan, jismoniy yoki ma'naviy azob chekkan, yoxud mol-mulkidan mahrum bo'lgan shaxs. Jabr ko'rgan bir kishi yoki bir guruh shaxslar ham topilishi mumkin" [15].

Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlarni inobatga olgan holda, jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslarni quyidagicha tasniflashga imkon beradi: 1) g'ayrihuquqiy qilmish natijasida ham jismoniy yoki ham yuridik shaxslar topilishi mumkin; 2) jinoyat natijasida unga jismoniy, ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazilishi mumkin; 3) jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs nafaqat jabrlanuvchi balki uning yaqin qarindoshlari ham topilishi mumkin; 4) jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs tergovga qadar bosqichida ya'ni jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida yohud jinoyatchilikni yashirish yoki latent jinoyatlarda ham bo'lishi mumkin; 5) jinoyatdan jabrgan shaxs deb marhum yoki bir kishi va bir guruh shaxslar topilishi mumkin.

Shunday qilib, jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs - jinoiy harakat yoki harakatsizlik natijasida jismoniy, moddiy, ma'naviy yoki asosiy huquq va erkinliklari buzilgan jismoniy yoki yuridik shaxslardir. Jabrlangan tushunchasi jinoyat protsessida "jabrlanuvchi" tushunchasidan kengroq bo'lib, nafaqat bevosita jabr ko'rgan shaxslarni, balki potensial jabrlanuvchilarni va butun jamiyatni ham o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining (keyingi o'rinlarda JPKda ataladi) 54-moddasida jabrlanuvchiga ta'rif berilgan. Unga binoan, jinoyat, xuddi shuningdek aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi shaxsga ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar yetkazgan deb hisoblash uchun dalillar bo'lgan taqdirda, bunday shaxs jabrlanuvchi deb e'tirof etiladi. Jabrlanuvchi deb e'tirof etish haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror, sud esa ajrim chiqaradi [16].

Ko'rinib turibdiki, qonun chiqaruvchi jabrlanuvchini faqat jinoiy ish qo'zg'atilganidan keyin paydo bo'lgan ishtirokchilar sifatida qaraydi. Ammo, tergovga qadar bo'lgan bosqichini tartibga

soluvchi moddalari sezilarli darajada kengaytirilganiga qaramay, ularda jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxslar bilan bog‘liq alohida murojaat qiluvchi birorta ham norma kiritilmagan, bu esa jinoyat protsessida shaxs huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning hozirgi davriga mos kelmaydi. Chunki, jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxslarning huquq va erkinlarini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi darajada ko‘tarilgan (29-modda). A.R.Belkinning e‘tirozi xaqlidir. Uning ta‘kidlashicha, tergovga qadar bosqichda ushbu masalalar qonunchilikdagi bo‘shliqlar sifatida qaraladi. Ayniqsa, ushbu masalalar jinoyat haqida ariza berilgandan to jinoyat ishini qo‘zg‘atilguncha ochiq qolmoqda [17].

V.A.Semenov, tergovga qadar bosqichida ushbu shaxs kim bo‘lib ishtirok etadi? Faqat arizachi, shikoyatchimi? [18] Amaliyotda, jinoyatdan jabrlangan shaxsga nisbatan “arizachi, fuqaro” atamasi ham qo‘llaniladi. Jinoyat-protsessual normalarida “arizachi” tushunchasiga aniq ta‘rif berilmagan. Odatda, arizachi jinoyat ishini qo‘zg‘atish jarayonida jinoyat to‘g‘risida xabar bergan shaxs yoki ishtirokchisi hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi, arizachining huquqiy holatini aniq belgilab bermagan, ya‘ni sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyat to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilishga undagan sabablar (aybini bo‘yniga olish) turlichadir. Arizachi jinoyatga aloqasi bo‘lmasligi ham mumkin. Shu bilan birga, arizachi o‘ziga bevosita zarar yetkazilmagan jinoyat haqida xabar berishi mumkin. Agar jabr ko‘rgan shaxs ham arizachi bo‘lsa, unda arizachi maqomi bo‘yicha bir qator huquqlardan mahrum bo‘ladi, bu ko‘rib chiqilayotgan ishtirokchining manfaatlariga aniq mos kelmaydi. Masalan, Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 7-moddasi birinchi qismi, 7-bandiga ko‘ra, arizachi - jinoiy huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki o‘zining haqiqiy yoxud taxmin qilinayotgan huquqini yoki o‘zi vakillik qilayotgan shaxsning huquqini jinoiy sud ishlarini yuritish tartibida himoya qilishni so‘rab sudga yoxud jinoiy ta‘qib organlariga murojaat etgan shaxsdir[19]. Bu ta‘rifdan ko‘rinib turibdiki, jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxs va arizachining jinoyat ishida ishtirok etishi manfaatlariga mos kelmaydi. Uni bartaraf etish uchun milliy qonunchiligida “arizachi” va “jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxs” tushunchasini nazarda tutish zarur, deb hisoblaymiz. Shubhasiz, arizachining, shikoyatchining maqomi ushbu qisqa muddatli tekshirishda ayniqsa, noqonuniy jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etishda (jinoyatchilikni yashirishda), shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash uchun yetarli emas.

Tergovga qadar bosqichida jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxslarning huquqiy maqomini belgilash bo‘yicha protsessualist olimlar ham qo‘llab-quvvatlaydilar. Jumladan, Yu.V.Astafev, “jinoyat sodir etilgani haqida ariza yuborgan shaxs jabrlanuvchi deb atalishi lozim. Jinoyat sodir etilganligi to‘g‘risidagi ariza qaysi shaxsning manfaatlarini ko‘zlab tekshirilayotgan bo‘lsa, agar bunday tekshirish huquqni muhofaza qiluvchi organlar tashabbusi bilan amalga oshirilgan bo‘lsa,

o'sha shaxsga ham xuddi shunday maqom berilishi kerak" [20]. Ushbu pozitsiyani I.V.Misnik ham qo'llab-quvvatlaydi, uning fikricha, jinoyatdan jabr ko'rgan shaxsning paydo bo'lishi jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlari kafolatlarini mustahkamlashga yordam beradi, deb hisoblaydi [21]. V.A.Semensov va G.O.Safaryanlarning fikricha, shaxslarni huquq va qonuniy manfaatlarni kafolatlovchi normalarni o'rnatilishi, kelgusida jinoyat haqidagi arizalarni tekshirish jarayonida protsessual ishtirokchilarning umumiy maqomini olish imkoniyatiga ega bo'ladi [22]. Jinoyat sudlov ishlarini yuritishning tergovga qadar bosqichidagi barcha sub'ektlar o'z ta'rifi va protsessual maqomga ega bo'lishi kerak. Chindan ham, jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslarning haqiqiy manfaatlari qonunda aks ettirilmagan va tegishli darajada kafolatga ega emas. Bundan tashqari, qonun chiqaruvchi tomonidan o'rnatilgan "jabrlanuvchiga" atamasining amaldagi talqini tergovga qadar ish yuritishning dastlabki bosqichidagi sub'ekt sifatida jinoyat qurboniga mos kelmaydi. Bizning fikrimizcha, milliy jinoyat protsessual qonunchiligimizda turli bosqichlarning o'rnatilishi, unda ishtirok etuvchi sub'ektlarning manfaatlar muvozanatiga to'g'ri kelmaydi. Shu bilan birga, yurtimizda olib borilayotgan jinoyat va jinoyat protsessual sohasidagi islohatlar bir tomondan jinoyat ishlarini yuritish vakolatiga ega bo'lgan organlarning imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan bo'lsa, boshqa tomondan, jinoyat ishiga jalb qilingan shaxslar kafolatini kuchaytirmoqda. Binobarin, jinoyat haqidagi ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish huquqiga ega organlarni masalan surishtiruv olib borish huquqiga ega bo'lgan organlar (Milliy gvardiya) kengayib borsa, ammo jinoyat qurboni masalasi yetarli darajada hal qilinmagan holda qolmoqda. Agar tezkor-qidiruv faoliyati, tergovga qadar tekshiruv zamonaviy milliy jinoyat protsessining to'laqonli bosqichi bo'lsa, unda ishtirok etayotgan shaxslarga protsessual maqomlar berish zarurligini tan olish kerak.

Tahlil va natijalar. Bayon etilganlar jinoyat protsessida jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslar alohida sub'ekt sifatida kiritish zarurligini ko'rsatmoqda. Ushbu atama jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida jinoyatdan jabr ko'rgan (jinoyat qurboni) nomlash uchun protsessual tilda uzoq vaqtdan beri qo'llaniladi, chunki "jabrlanuvchi" tushunchasi ushbu bosqichga ta'sir qilmaydigan va dastlabki tergovni boshlash to'g'risida qaror qabul qilingandan keyin qo'llaniladigan maxsus yuridik ma'noga egadir. Bizningcha, jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs deb topish (maqom ega bo'lish) uchun, huquqni muhofaza qilish organlariga jinoyat haqidagi ariza berilgandan so'ng ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bu ikki holatda yuz beradi: birinchidan, jabr ko'rgan jinoyat haqida shaxsan xabar berganida; ikkinchidan, jinoyatdan jabr ko'rgan shaxsdan dastlabki tushuntirish (uning huquq va majburiyatlari tushuntirilganda) olinganda.

JPKning 55-moddasida jabrlanuvchining huquq va majburiyatlari nazarda tutilgan holda, jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichi ya'ni tezkor-qidiruv faoliyati yoki tergovga qadar bosqichida

jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslarni maqomini belgilash maqsadga muvofiqdir. Masalan, jinoyat haqida ariza berish; jinoyat to'g'risidagi arizani qabul qilishni rad etish ustidan shikoyat qilmoq; arizani ro'yhatdan o'tkazilganligi to'g'risida xabarni olish; jinoyat materiallari bilan tanishib chiqish va nusxalar olish; jinoyat ishi qo'zg'atilganligi yoki rad etilganligi to'g'risida qaror nusxasini olish; jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etganligi to'g'risida shikoyat qilish huquqiga ega bo'lish; tarjimondan foydalanish; jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs jinoyat fakti to'g'risida bila turib yolg'on ma'lumotlar berishga haqli emas va buning uchun jinoiy javobgar keltirib chiqarishi bo'yicha ogohlantirish. Ko'rinib turibdiki, arizachi va jabrlanuvchining maqomi bilan mos kelmaydi. Odatda, jinoyat ishlarini yuritishda arizachi jinoyat haqida ariza berish, tushuntirishlar berish, tarjimon yordamidan foydalanish, o'z vakiliga ega bo'lish huquqiga ega. Majburiyat sifatida, organlarning chaqiruviga binoan hozir bo'lishni nazarda tutuvchi qoidani o'rnatish lozim.

Bizning fikrimizcha, yuqorida jinoyatdan jabr ko'rgan shaxsni huquqiy maqomini belgilash bilan bog'liq masalalar aynan tergovga qadar bosqichiga monand deb hisoblaymiz.

Shu bois, JPKning yangi 551-moddasini kiritish taklif etiladi:

“Jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs: ariza ro'yxatga olinganligi yoki ro'yxatga olishni rad etilganligi to'g'risida xabardor bo'lish; jinoyat to'g'risidagi xabarni tekshirish bilan bog'liq o'ziga ma'lum bo'lgan holatlar yuzasidan tushuntirishlar berish; advokatning yuridik yordamidan foydalanish; tarjimon xizmatidan foydalanish; ushbu Kodeks 270-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan xavfsizlik choralari qo'llash to'g'risida iltimosnoma kiritish; ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa va hujjatlarni taqdim etish; ishning barcha materiallari bilan tanishish va undan zarur ma'lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o'z hisobidan ko'chirma nusxalar olish yoki ulardagi ma'lumotlarni o'ziga shaklda qayd etish; jinoyat ishini qo'zg'atish yoki rad etish yoxud ishni tugatish haqida qaror bilan tanishish; jinoyat to'g'risidagi xabarni tekshiruvchi mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) va qarorlari ustidan shikoyat qilish.

Jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs bila turib yolg'on ma'lumotlar berishga, tezkor xodimning, surishtiruvchining, tergovchining chaqiruviga binoan kelishdan va ko'zdan kechirishda hamda qiyosiy tekshirish uchun namunalar olishda ishtirok etishdan bo'yin tovlashga; shuningdek jinoyat to'g'risidagi xabarlarni tekshirishda ishtirok etish chog'ida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni oshkor qilishga haqli emas.

Jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs uzrsiz sababga ko'ra kelmagan taqdirda ushbu Kodeksning 261 — 264-moddalarida nazarda tutilgan tartibda majburiy olib kelinishi mumkin.”

Shuningdek, arizachi tushunchasini JPKning yangi 3241-moddasini kiritish taklif etiladi:

“Arizachi - tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan jinoyat to‘g‘risida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yoki sudga murojaat qilgan shaxsdir. Arizachi o‘z arizasini ko‘rib chiqish natijalaridan xabardor bo‘lish, tekshiruvning borishi haqida ma‘lumot olish va qabul qilingan qaror ustidan shikoyat qilish huquqiga ega. Arizachi bila turib yolg‘on xabar berganlik uchun jinoiy javobgarlik keltirib chiqaradi.”

Shunday qilib, tergovga qadar bosqichida arizachi, jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxslar o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun imkoniyat tug‘iladi. Ushbu huquqlardan jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida foydalanish mumkin. Chunki amaliyotda bu bilan bog‘liq muammolar ko‘p uchraydi va bunga ehtiyoj mavjud. Masalan, jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxs tergovga qadar tekshiruv materiallari bilan tanishish va kerak bo‘lsa nusxalar olish ayniqsa noqonuniy jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etilganda yaqqol ehtiyoj seziladi.

Keyingi muhokama qiladigan jinoyat protsessual ishtirokchimiz shohid sanaladi. Ta‘kidlash joizki, JPKda jinoyat protsessida ishtirok etishi mumkin ishtirokchilar ro‘yxati keltirib o‘tilgan. Ammo, jinoyat protsessida ishtirok etuvchi shaxslar ro‘yxatida shohidlar mavjud emas. Jinoyat protsessi doirasida ishtirok etish deganda, jinoyat protsessining muayyan bosqichlarida yoki muayyan protsessual harakat davomida shaxslarning o‘zaro munosabati tushuniladi. Ushbu jarayonda albatta u yoki bu tomonda ma‘lum bir huquq va majburiyat yuzaga keladi. Shohidlar asosan jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida namoyon bo‘ladi, ular ish uchun aniqlash uchun muhim ma‘lumotlarga ega bo‘lgan shaxslar hisoblanadi, lekin guvoh yoki jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxslar emas. Jinoyat to‘g‘risidagi ariza va xabarni olish, tekshirish va ko‘rib chiqish bosqichida shohidlar aniqlanadi. Demak, jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida ishtirok etuvchi har qanday shaxs jinoyat protsessual maqomga ega bo‘lishi kerak degan xulosaga kelish imkonini beradi. Biroq, JPKning 6-bobida jinoyat ishini qo‘zg‘atishda ishtirok etishi mumkin bo‘lgan shaxslar qatorida ushbu shaxsning ismlari va protsessual holatiga oid qoidalar mavjud emas. Ushbu sub‘ekt jinoyat protsessual amaliyoti va nazariyasida shohid degan nomni olgan.

I.V.Kaznachev va S.D.Nazarov shohid tushunchasini quyidagicha ta‘riflaydilar: “jinoyat sodir etilayotgan paytda voqea joyida bo‘lgan, jinoyatning ob‘ektiv tomonini, shu jumladan jinoyat sodir etayotgan shaxsni ham bevosita ko‘rgan shaxsdir” [23]. A.S.Po‘latov, amaliyotda aksar hollarda to‘satdan jinoyatning shohidi bo‘lgan shaxslar, keyinchalik guvoh sifatida tergovga chaqiriladi [24]. Milliy jinoyat protsessual qonunchilikda jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida tartibga soluvchi qoidalarda shohid haqida gapirilmagan. Kodeks matnida shohid haqida faqat uch marta eslatib o‘tiladi. Masalan, JPKning 221 va 224-moddalariga binoan, jinoyat shohidlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri gumondor shaxslarning ko‘rsatilganda ushlab turish mumkinligi ko‘rsatilgan [25]. Bu yerda “shohid” atamasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri voqea, hodisa yoki hodisani bevosita kuzatgan

shaxs sifatida qo'llaniladi, chunki bu shaxs tomonidan gumondor shaxsning noqonuniy xatti-harakatlarini bevosita shaxsan o'zi idrok etganligi va bu haqiqiy jinoyatchini qo'lga olishning yuqori ehtimolini ta'minlaydi. Shunday qilib, bunday shohid katta dalilliy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumot egasidir. Bundan shaxslar dastlab jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida shohidlar keyinchalik jinoyat ishida muhim guvohga aylanadilar. Biroq, ular faqat jinoyat haqida ariza, xabar berish bilan, jinoyat ishini qo'zg'atish va dastlabki tergov yuritish uchun asos bo'lmaydi. Chunki, haqiqiy hayotda jinoiy hodisani bevosita kuzatmagan, lekin sodir etilganligi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lgan boshqa ko'plab shaxslar mavjud. Amaliyotda, insonlar minglab jinoyat to'g'risida xabarlar beradilar, faqat o'z tasdig'ini topgan holatdagina jinoyat ishini qo'zg'atish mumkin bo'ladi. Shu bois, jinoyat ishi qo'zg'atish bosqichida shohid - bu jinoyat to'g'risidagi xabarni tekshirish uchun muhim bo'lgan holatlardan xabardor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxs hisoblanadi. Shohid va guvoh o'rtasidagi o'xshashlikka qaramay, ularning huquqiy maqomi teng emas. Shohid bila turib yolg'on ma'lumot berganligi uchun Jinoyat kodeksining 238-moddasiga binoan jinoiy javobgarlikka tortilmaydi va shuning uchun shohidning tushuntirishi dalilliy ahamiyatga ega emas. Bundan tashqari, qonunchilikda shohidga nisbatan jinoyat protsessida majburlov choralari qo'llanilishi mumkin emas. Amaldagi JPKda shohidlar uchun qonuniy belgilangan maqomning mavjud emasligi jinoyat protsessida shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilishning hozirgi darajasiga mos kelmaydi. Natijada jinoyat ishini yuritish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar va shohidlar o'rtasida tushunmovchiliklar keltirib chiqaradi. Shohidning rolini belgilash muhim amaliy ahamiyatga ega, chunki u insonni adolatni ta'minlashda o'zining huquqiy va fuqarolik burchini bajarishga undashi mumkin.

Shu bois, JPKning yangi 651-moddasini kiritish taklif etiladi:

“Shohid - jinoyat to'g'risidagi xabarni tekshirish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar va ma'lumotlar haqida o'ziga ma'lum bo'lishi mumkin bo'lgan shaxsdir.

Shuningdek, JPKning yangi 661-moddasini kiritish taklif etiladi:

“Shohid: jinoyat to'g'risidagi xabarni tekshirish bilan bog'liq o'ziga ma'lum bo'lgan holatlar yuzasidan tushuntirishlar berish; advokatning yuridik yordamidan foydalanish; tarjimon xizmatidan foydalanish; ushbu Kodeks 270-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan xavfsizlik choralari qo'llash to'g'risida iltimosnoma kiritish; ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa va hujjatlarni taqdim etish; jinoyat to'g'risidagi xabarni tekshiruvchi mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) va qarorlari ustidan shikoyat qilish.

Shohid bila turib yolg'on ma'lumotlar berishga, tezkor xodimning, surishtiruvchining, tergovchining chaqiruviga binoan kelishdan va ko'zdan kechirishda hamda qiyosiy tekshirish uchun namunalari olishda ishtirok etishdan bo'yin tovlashga; shuningdek jinoyat to'g'risidagi

xabarlarini tekshirishda ishtirok etish chog'ida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni oshkor qilishga haqli emas.

Shohid uzrsiz sababga ko'ra kelmagan taqdirda ushbu Kodeksning 261 — 264-moddalarida nazarda tutilgan tartibda majburiy olib kelinishi mumkin.”

Xulosa qilib aytganda, jinoyat ishini qo'zg'atish jarayoni jinoyat protsessining dastlabki, biroq shaxs huquq va erkinliklarini ta'minlash nuqtai nazaridan eng mas'uliyatli bosqichlaridan biri hisoblanadi. Aynan ushbu jarayonda jinoyat haqidagi ariza, xabar yoki boshqa ma'lumotlar tekshiriladi, jinoyat ishini qo'zg'atish yoki uni qo'zg'atishni rad etish haqida qaror qabul qilinadi. Shu sababli mazkur jarayonda ishtirok etayotgan shaxslarning huquqiy maqomini aniq belgilash qonuniylik, adolat va protsessual kafolatlarni ta'minlashning muhim shartidir.

Umuman olganda, jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs, arizachi va shohidning huquqiy maqomini jinoyat protsessual qonunchiligida aniq belgilash jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida inson huquqlarini samarali himoya qilish, latent jinoyatchilikning oldini olish, jinoyat haqidagi xabarlarini o'z vaqtida va xolis tekshirish, shuningdek fuqarolarning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur takliflar milliy jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish, protsess ishtirokchilarining huquqiy kafolatlarini kuchaytirish va odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirish nuqtai nazaridan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2025.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyusiya 217 A (III) bilan 1948 yil 10 dekabrda qabul va e'lon qilingan.
3. Рекомендация Комитета министров Совета Европы от 28 июня 1985 г. N R (85) 11 “Комитет министров - государствам-членам относительно положения потерпевшего в рамках уголовного права и уголовного процесса”// Российская юстиция. 1997. № 7.
4. Декларация основных принципов правосудия для жертв преступлений и злоупотребления властью» (принята Резолюцией 40/34 Генеральной Ассамблеи ООН от 29 ноября 1985 г.)
5. Uzakov Sh.Sh. Dastlabki tergovda jabrlanuvchining huquq va qonuniy manfaatlarini prokuror tomonidan ta'minlanishi. Avtoref.diss...yuridik. fan. falsafa. dokt (PhD). T., Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, 2024. – B. 17.
6. Turaeva D.R. Jinoyat protsessida jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini muhofaza qilish mexanizmini takomillashtirish. Avtoref.diss...yuridik. fan. falsafa. dokt (PhD). T., O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 2020. -B. 23.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yildagi 14 maydagi PQ-3723-son “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
8. Лунеев В.В. Социальные последствия, жертвы и цена преступности // Государство и право. 2009. № 1. С. 45.
9. Полубинский В.И., Ситковский А.Л. Теоретические и практические основы криминальной виктимологии: монография. М., 2006. С. 208.
10. Грушко Н. О. Проблемы правовой защиты жертв преступлений. <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-pravovoy-zaschity-zhertv-prestupleniy>
11. <https://yurpsy.com/files/xrest/2/191.htm>
12. <https://studfile.net/preview/3347866/page:6/>
13. Victims’ Rights and Restitution Act of 1990.
14. 111. Ann. Stat. ch.70, para. 402.3 (Smilh-Hurd 1989). 80 Ga. Code Ann. § 17-15-2(7) (Michie 1990). 81 Wis. Stat. Ann. § 949.01(6) (West 1982 & Supp. 1991).
15. Federico, John. Criminal Law and Justice Dictionary. - West Publishing Company. - 1996.-P. 461.
16. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – T.: O‘zbekiston, 2025.
17. Белкин А.Р. Процессуальный статус потерпевшего нуждается в пересмотре // Публичное и частное право. 2010. № 3. С. 67.
18. Семенцов В.А. Обеспечение прав лиц и организаций, потерпевших от преступлений, в стадии возбуждения уголовного дела // Общество и право. 2019. № 2 (68). С. 64.
19. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан от 4 июля 2014 года № 231-V (с изменениями и дополнениями по состоянию на 16.09.2025 г.).
20. Астафьев Ю.В. Нормативные пробелы обеспечения законных интересов участников стадии возбуждения уголовного дела // Проблемы отправления правосудия по уголовным делам в современной России: теория и практика. Курск, 2015. С.20.
21. Мисник И.В. Процессуальное положение потерпевшего в российском уголовном судопроизводстве: монография / И.В. Мисник; под ред. И. В. Смольковой. Иркутск: ФГОУ ВПО ВСИ МВД РФ, 2010. С.94.
22. Семенцов В.А., Сафарян Г.О. О проблеме определения в стадии возбуждения уголовного дела процессуального статуса лица, которому преступлением причинен вред, и

возможном пути ее решения // Общество и право. Научно-практический журнал. 2016. № 2 (56). С. 231.

23. Казначей И.В., Назаров С.Д. Фантомы уголовного судопроизводства - заявитель и очевидец как участники проверки сообщения о преступлении // Вестник Уральского юридического института МВД России. 2018. № 2. С. 25.

24. Po‘latov A.S. Jinoyat protsessida guvohning maqomi va uni takomillashtirish masalalari: Avtoref.diss...yuridik. fan. falsafa. dokt (PhD). TDYuU, 2022. –B. 142.

25. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – T.: O‘zbekiston, 2025.